QASHQADARYO VILOYATI
SHAHRISABZ SHAHAR HOKIMINING
Q A R O R I

2022 - yil 25 - iyul 108-4-209-Q/22 Shahrisabz shahar hokimligi

Shahrisabz shahrida dam olish kunlarida yarmarkalarni tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi 253-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalariga muvofiq, shahar hududida dam olish kunlari yarmarkalarni tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Shahrisabz shahridagi fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yarmarkalar o‘tkazish bo‘yicha bergan taqdimnomalarini inobatga olib, “Yangi Kesh” dehqon (oziq-ovqat) bozori” MChJ hududida har shanba va yakshanba kunlari soat 07-00 dan 17-00 gacha yarmarkalar tashkil etilishi belgilansin.

2. Yarmarkalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va ularni qayta ishlashdan olingan tovarlar, shuningdek, ilgari foydalanishda bo‘lgan nooziq-ovqat iste’mol tovarlarini sotishga ruxsat berilishi;

yarmarkalar hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishi;

yarmarkalar uchun ajratilgan savdo o‘rinlarining toza va tartibli saqlanishiga sotuvchilar mas’ul ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Yarmarkalarda mahsulotlarni sotish quyidagi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin:

tovarga oid hujjatlar (tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan sotilayotgan mahsulot jismoniy shaxs tomonidan unga yoki uning oila a’zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi, belgilangan shakldagi hujjat (ma’lumotnoma));

sotuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat.

4. “Yangi Kesh” dehqon (oziq-ovqat) bozori” MChJ ma’muriyati:

yarmarkalar tashkil etish uchun bozorning aholiga qulay bo‘lgan qismidan, bozorning umumiy savdo maydonining 5 foizidan kam bo‘lmagan maxsus joylar ajratilishini;

yarmarkalar uchun ajratilgan hududdan savdo o‘rinlarining bepul berilishini;

yarmarkalar o‘tkazilishini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritishni ta’minlasin va bozorning kirish joylariga e’lonlar joylashtirishni tashkil etilishini inobatga olsin.

5. Shahrisabz shahar davlat soliq inspeksiyasi (X.Eshboltayev) har yakshanba kunlari yarmarkalar tashkil etish uchun joy ajratilganligini, o‘tkazilayotganligini hamda yarmarkalar hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishini hamda yarmarkalarda tovarga oid hujjatlar mavjudligini doimiy nazorat qilsin.

6. Shahrisabz shahar sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bo‘limi (M.Omonov) yarmarkalarda sotilayotgan mahsulotlarni turlariga qarab joylashtirish va ularni sifat jihatdan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga to‘g‘ri kelishini doimiy nazoratga olsin.

7. Shahrisabz shahar Ichki ishlar bo‘limi (S.Usmonov) bozor hududida yarmarkalar o‘tkaziladigan kunda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror “Kesh” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning shakhrisabzgov.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.


9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Uzoqov zimmasiga yuklatilsin.

Shahrisabz shahar hokimi **Isomiddinovich S. A.**

Shahrisabz shahar hokimining
2022 yil 25 iyuldagi
108-4-209-Q/22-son qaroriga
1-ilova





HOKIM QARORI

Shahrisabz shahrida dam olish kunlarida yarmarkalarni tashkil etishni samarali yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida

ID-63842

Shahrisabz shahrida dam olish kunlarida yarmarkalarni tashkil etishni samarali yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi 253-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalariga muvofiq, shahar hududida dam olish kunlari yarmarkalarni tashkil etish bilan bog'liq faoliyatni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan



bilan bog'liq faoliyatni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Shahrisabz shahridagi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining yarmarkalar o'tkazish bo'yicha bergan taqdimnomalarini inobatga olib, "Yangi Kesh" dehqon (oziq-ovqat) bozori" MChJ hududida har shanba va yakshanba kunlari soat 07-00 dan 17-00 gacha yarmarkalar tashkil etilishi belgilansin.

2. Yarmarkalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ularni qayta ishlashdan olingan tovarlar, shuningdek, ilgari foydalanishda bo'lgan nooziq-ovqat iste'mol tovarlarini sotishga ruxsat berilishi;

yarmarkalar hududida savdo o'rinlarining bepul berilishi;

yarmarkalar uchun ajratilgan savdo o'rinlarining toza va tartibli saqlanishiga sotuvchilar mas'ul ekanligi ko'rsatib o'tilsin.

3. Yarmarkalarda mahsulotlarni sotish quyidagi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin:

tovarga oid hujjatlar (tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan sotilayotgan mahsulot jismoniy shaxs tomonidan unga yoki uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi, belgilangan shakldagi hujjat (ma'lumotnoma));


regulation.gov.uz
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR
LOYIHALARI MUHOKAMASI PORTALI
O'zbek
4
Muhokama yakunlandi
Umumiy takliflar: 0
Takliflarni ko'rsatish